

MAXFIYLIK SIYOSATI

«The MOVER» mas'uliyati cheklangan jamiyati, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Mirobod tumani, Nukus ko'chasi, 86/3-uy, «SILVER» biznes markazi. (bu yerda va keyingi o'rinlarda – The MOVER) biz birga faoliyat yuritadigan, shuningdek tashqi xizmat ko'rsatuvchilar, mijozlar, xodimlar, biznes hamkorlarimizning shaxsiy ma'lumotlarining muhimligini tushunadi va ularning maxfiyligiga rioya qilish uchun barcha zarur chora-tadbirlarni ko'radi.

Ushbu Maxfiylik siyosatida (keyingi o'rinlarda «Siyosat») The MOVER kompaniyasi tomonidan biz o'zaro aloqada bo'ladigan shaxslarning shaxsiy ma'lumotlarini qanday yig'ish, qayta ishlash va himoya qilish jarayoni tavsiflanadi. Ushbu Siyosatning maqsadi - saytimizdan foydalanganda yoki kompaniyamiz bilan o'zaro aloqada bo'lganingizda ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilishingizga yordam berishdir.

Ushbu shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash Siyosati O'zbekiston Respublikasining 02.07.2019 yildagi O'RQ-547-sonli «Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida» gi Qonuni (keyingi o'rinlarda Qonun) talablariga muvofiq tuzilgan.

Siyosatda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

shaxsiy ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan tarzda qayta ishlash - shaxsiy ma'lumotlarni hisoblash texnikasi yordamida qayta ishlash

shaxsiy ma'lumotlarni bloklash - shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashni vaqtincha to'xtatib qo'yish (shaxsiy ma'lumotlarni aniqlashtirish uchun qayta ishlash zarur bo'lgan hollardan tashqari);

shaxsiy ma'lumotlarning axborot tizimi - shaxsiy ma'lumotlar bazalarida mavjud bo'lgan shaxsiy ma'lumotlar, shuningdek, ularni qayta ishlanishini ta'minlaydigan axborot texnologiyalari va texnik vositalar majmui;

shaxsiy ma'lumotlarni shaxssizlashtirish - natijasida qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanmasdan shaxsiy ma'lumotlarning muayyan subyektiga tegishli shaxsiy ma'lumotlarga egalik huquqini aniqlash mumkin bo'lmagan harakatlar;

shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash - avtomatlashtirish vositalaridan foydalangan yoki bunday vositalardan foydalanmagan holda amalga oshiriladigan har qanday harakat (operatsiya) yoki harakatlar (operatsiyalar) majmui, shuningdek shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish, ro'yxatga olish, tizimlashtirish, to'plash, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, o'zgartirish), olish, foydalanish, ularni berish (tarqatish, taqdim etish, kirishga ruxsat berish), shaxssizlashtirish, bloklash, o'chirish, yo'q qilish;

operator - mustaqil ravishda yoki boshqa shaxslar bilan birgalikda shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashni tashkil etuvchi va (yoki) amalga oshiruvchi, shuningdek shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash, qayta ishlanadigan shaxsiy ma'lumotlar tarkibi, shaxsiy ma'lumotlar bilan amalga oshiriladigan harakatlarning (operatsiyalar) maqsadini belgilaydigan yuridik shaxs;

shaxsiy ma'lumotlar - to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita aniq yoki aniqlanayotgan jismoniy shaxsga (shaxsiy ma'lumotlar subyektiga) tegishli har qanday ma'lumot;

foydalanuvchi – Internet tarmog'ining <https://rtlalliance.uz> manzildagi har qanday tashrif buyuruvchi;

shaxsiy ma'lumotlarni taqdim etish - shaxsiy ma'lumotlarni ma'lum bir shaxsga yoki ma'lum



shaxslar doirasiga oshkor qilishga qaratilgan harakatlar;

shaxsiy ma'lumotlarni tarqatish - shaxsiy ma'lumotlarni shaxslarning noma'lum doirasiga oshkor qilishga (shaxsiy ma'lumotlarni berish) yoki cheklanmagan doiradagi shaxslarning shaxsiy ma'lumotlari bilan tanishishga, shuningdek shaxsiy ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalarida oshkor qilishga, axborot-telekommunikatsiya tarmoqlarida joylashtirishga yoki shaxsiy ma'lumotlarga boshqa yo'l bilan kirishni taqdim etishga qaratilgan harakatlar;

shaxsiy ma'lumotlarni chegaralararo uzatish - shaxsiy ma'lumotlarni xorijiy davlat hududidagi xorijiy davlat hukumat organiga, xorijiy jismoniy yoki xorijiy yuridik shaxsga o'tkazish.

shaxsiy ma'lumotlarni yo'q qilish - buning natijasida shaxsiy ma'lumotlar axborot tizimidagi shaxsiy ma'lumotlar tarkibini tiklashning iloji bo'lmagan va (yoki) buning natijasida shaxsiy ma'lumotlarning moddiy tashuvchilari yo'q qilinadigan harakatlar.

Shaxsiy ma'lumotlarni ko'rsatish va (yoki) saytimizda elektron shakllarni to'ldirishdan oldin ushbu Siyosatni diqqat bilan o'qib chiqishingizni tavsiya qilamiz. Saytimizga tashrif buyurish yoki bizga shaxsiy ma'lumotlaringizni taqdim etish bilan siz ushbu Siyosatga muvofiq shaxsiy ma'lumotlaringizni to'plash, ishlatish va oshkor qilinishiga rozilik bildirasiz.

Siyosatning qo'llanish sohalari

Ushbu Siyosat, saytimiz foydalanuvchilari, shuningdek, kompaniya bilan biznes aloqalari bo'lgan shaxslarga tegishli ma'lumotlarni taqdim etish uchun mo'ljallangan.

Kompaniya yig'adigan shaxsiy ma'lumotlar

Biz siz haqingizda quyidagi shaxsiy ma'lumotlarni to'plashimiz va qayta ishlashimiz mumkin, biroq bu bilan cheklanib qolmasdan, shu jumladan:

1. Familiyasi, ismi, otasining ismi;
2. Firma nomi;
3. Telefon raqami;
4. Elektron pochta manzili;
5. Shuningdek, saytda tashrif buyuruvchilar haqidagi ma'lumotlarni (shu jumladan cookie fayllari) yig'ish va qayta ishlash amalga oshiriladi.

Shaxsiy ma'lumotlarni olish usullari

Foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlash muddatsiz, har qanday qonuniy yo'l bilan, shuningdek shaxsiy ma'lumotlarning axborot tizimlarida avtomatlashtirish vositalaridan foydalangan holda yoki bunday vositalardan foydalanmasdan amalga oshiriladi.

Shaxsiy ma'lumotlarni yig'ishning maqsadlari

Shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish quyidagi maqsadlarda amalga oshirilishi mumkin:

- keyinchalik tasdiqdan o'tish uchun <https://rtlalliance.uz> saytida ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchining shaxsini aniqlash.
- qayta aloqa o'rnatish, shu jumladan Foydalanuvchidan bildirishnomalar, so'rovlar yuborish, so'rov va arizalarni qayta ishlash bilan.
- Foydalanuvchi tomonidan taqdim etilgan shaxsiy ma'lumotlarning to'g'riligi va to'liqligini tasdiqlash.

«THE MOVER» MChJ

INN 311245116

O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Mirobod tumani, Nukus

ko'chasi, 86/3-uy, «SILVER» biznes markazi

info@themover.uz



- muammolar yuzaga kelganda Foydalanuvchiga samarali texnik yordam ko'rsatish.
- Foydalanuvchiga uning roziligi bilan maxsus takliflar, yangiliklar jo'natmalari va boshqa ma'lumotlarni taqdim etish.
- saytning ishlashi: saytimizdan eng qulay foydalanish va uning mazmunini istalgan qurilmada to'g'ri ko'rsatish.

Ma'lumotlarni qayta ishlashning huquqiy asoslari

The MOVER kompaniyasi, quyidagi shartlardan biri yoki bir nechitasi asosida shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlaydi:

1. Sizning roziligingiz olganinganda (bu holda bunday rozilik istalgan vaqtda sababni ko'rsatmasdan qaytarib olinishi mumkin);
2. Agar bu, siz bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq majburiyatlarni bajarish uchun zarur bo'lsa;
3. Agar ma'lumotlarni qayta ishlash, kompaniyaning qonun bilan belgilangan majburiyatlarini bajarish uchun zarur bo'lsa;
4. Agar ma'lumotlarni qayta ishlash, jismoniy shaxsning hayotiy muhim yoki qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun zarur bo'lsa;
5. Agar ma'lumotlarni qayta ishlash jamoat manfaatlarini himoya qilish yoki muhim ijtimoiy vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lsa; yoki
6. Agar The MOVER kompaniyasi ma'lumotlarni qayta ishlashdan qonuniy manfaatdor bo'lsa.

Boshqa saytlarga qayta yo'naltirish

Siz ushbu saytdan siz boshqa begona saytlariga maxsus havolalar orqali o'tishingiz mumkin. The MOVER kompaniyasi, bunday saytlardagi kontent uchun javobgar emas va ularni yoki begona saytlarda reklama qilinadigan xizmatlarni tavsiya etmaydi va ushbu saytlarda shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash yoki boshqa harakatlar, shuningdek, begona saytdagi kontent, bizning saytimizda ularga o'tish uchun joylashtirilgan havolalar uchun javobgar bo'lmaydi. Siz tashrif buyuradigan saytlarda joylashtirilgan maxfiylik siyosati va boshqa barcha qoidalar bilan yaxshilab tanishib chiqishingizni qat'iy tavsiya qilamiz. Ushbu Siyosat qoidalari faqat The MOVER kompaniyasi tomonidan to'plangan ma'lumotlarga nisbatan qo'llanilishini yodda tutishingiz zarur.

Shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, uzatish va qayta ishlashning boshqa ko'rinishlarining tartibi

Operator tomonidan qayta ishlanadigan shaxsiy ma'lumotlarning xavfsizligi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish sohasidagi amaldagi qonun hujjatlari talablariga to'liq rioya qilish uchun zarur bo'lgan huquqiy, tashkiliy va texnik chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali ta'minlanadi.

Operator, shaxsiy ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlaydi va vakolatsiz shaxslarning shaxsiy ma'lumotlariga kirishni istisno qilish uchun barcha choralarni ko'radi.

Foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlari, hech qachon, hech qanday holatda, uchinchi shaxslarga o'tkazilmaydi, amaldagi qonunchilikni amalga oshirish bilan bog'liq hollar bundan mustasno.


Shaxsiy ma'lumotlarda noaniqliklar aniqlangan hollarda, Foydalanuvchi dpo@themover.uz elektron pochta manziliga Operatorga bildirishnoma yuborish orqali ularni mustaqil tarzda yangilashi mumkin.

«THE MOVER» MChJ

INN 311245116

O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Mirobod tumani, Nukus ko'chasi, 86/3-uy, «SILVER» biznes markazi

info@themover.uz



Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash muddati cheklanmagan, ammo ularni to'plash va qayta ishlash maqsadlariga erishish sanasidan oshmasligi kerak. Foydalanuvchi istalgan vaqtda operatorga operatorning elektron manziliga yuborish orqali shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga roziligini qaytarib yuborishi mumkin dpo@themover.uz elektron pochta orqali.

Shaxsiy ma'lumotlarni oshkor qilish

Shaxsiy ma'lumotlar qabul qiluvchilarning noma'lum doirasiga taqdim etilmaydi. Agar bu narsa haqiqatan ham qonuniy tijorat maqsadlariga erishish uchun talab qilinsa va amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan bo'lsa The MOVER kompaniyasi xizmat zaruyatidan kelib chiqib sizning shaxsiy ma'lumotlaringizni uchinchi shaxslarga oshkor qilishi mumkin. Sizning shaxsiy ma'lumotlaringizni oshkor qilish, amaldagi qonunchilikka qat'iy muvofiq, tegishli shartnoma munosabatlari bilan belgilanadigan tegishli himoya choralari ko'rish bilan amalga oshiriladi. O'z faoliyatini amalga oshirish uchun, The MOVER kompaniyasi shaxsiy ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga, shu jumladan jamoat, davlat (davlat organlari, shu jumladan ijtimoiy ta'minot idoralari), The MOVER kompaniyasiga xizmat ko'rsatuvchi nazorat-tekshiruv organlari, uchinchi shaxslarga, (shu jumladan, biroq bu bilan cheklanib qolmasdan xizmat ko'rsatuvchilarga, auditorlik kompaniyalariga, maslahat/pudrat xizmati ko'rsatuvchi kompaniyalariga) kompaniya bilan birga ishlovchi 'biznes hamkor va tashkilotlariga oshkor qilish huquqiga ega. Shuningdek, agar The MOVER kompaniyasidan qonun hujjatlariga muvofiq yoki nazorat qiluvchi organlarning iltimosiga binoan ma'lumotlarni oshkor qilish yoki uzatish talab qilinsa, shaxsiy ma'lumotlar oshkor qilinishi mumkin.

Shaxsiy ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash

Operator tomonidan qayta ishlanadigan shaxsiy ma'lumotlarning xavfsizligi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish sohasidagi qonun hujjatlari talablarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan huquqiy, tashkiliy va texnik chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali ta'minlanadi.

Shaxsiy ma'lumotlarga ruxsatsiz kirishning oldini olish uchun, Operator tomonidan quyidagi tashkiliy va texnik choralar qo'llaniladi:

- shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash va himoya qilishni tashkil etish uchun mas'ul mansabdor shaxslarni tayinlash;
- shaxsiy ma'lumotlarga kirish huquqiga ega bo'lgan shaxslar tarkibini cheklash;
- axborot tashuvchilarni hisobga olish, saqlash va murojaatini tashkil etish;
- axborot xavfsizligi vositalaridan foydalanishning tayyorligi va samaradorligini tekshirish;
- shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish tizimini tiklash vositalari va virusga qarshi vositalardan foydalanish;

Biz sizning ma'lumotlaringizni ushbu Siyosat, ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha amaldagi qonunlar va ma'lumotlarni himoya qilishning xalqaro standartlariga muvofiq xavfsiz tarzda qayta ishlanishini ta'minlash uchun barcha asoslangan zarur choralarni ko'ramiz Siz kompaniyaga topshirgan barcha ma'lumotlar himoyalangan serverlarda saqlanadi. Ma'lumotlaringizga kirish va ulardan foydalanish, bizning qoidalimiz va xavfsizlikni ta'minlash standartlari bilan tartibga solinadi. The MOVER kompaniyasida, sizning shaxsiy ma'lumotlaringizni ruxsatsiz kirish, oshkor qilish, o'zgartirish va yo'q qilishdan himoya qilish uchun asoslangan jismoniy, texnik, ma'muriy va xavfsizlik nazorati chora-tadbirlari qo'llanadi.

Sizning shaxsiy ma'lumotlaringiz, faqat ma'lumotlar to'planishidagi maqsadlar va boshqa mumkin

«THE MOVER» MChJ

INN 311245116

O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Mirobod tumani, Nukus

ko'chasi, 86/3-uy, «SILVER» biznes markazi

info@themover.uz



bo'lgan qonuniy yordamchi maqsadlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan muddat davomida saqlab turiladi. The MOVER da tegishli tegishli qonuniy majburiyatlar, nazorat-tekshiruv organlarining talablari yoki huquqlari mavjud bo'lgan hollarda, ma'lumotlar uzoqroq saqlanishi mumkin.

Foydalanuvchining huquqlari

Foydalanuvchi, agar qonunchilikka muvofiq bunday huquq cheklanmagan bo'lsa, Operatoridan uning shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashiga tegishli ma'lumot olish huquqiga ega. Shaxsiy ma'lumotlar to'liq bo'lmagan, eskirgan, noto'g'ri, noqonuniy ravishda olingan yoki qayta ishlashning belgilangan maqsad uchun zarur bo'lmagan taqdirda, Foydalanuvchi Operatoridan o'z shaxsiy ma'lumotlarini aniqlashtirishni, ularni bloklashni yoki yo'q qilishni talab qilishga, shuningdek ularning huquqlarini himoya qilish uchun qonuniy choralar ko'rish huquqiga ega.

Operator shaxsiy ma'lumotlar sub'ektining talabiga binoan yuqorida ko'rsatilgan maqsadlarda o'z shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashni darhol to'xtatishi shart.

Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda yoki shaxsiy ma'lumotlar sub'ektining yozma roziligi mavjudligidan tashqari hollarda, Foydalanuvchiga nisbatan huquqiy oqibatlarga olib keluvchi yoki boshqa tomonlama uning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxl qiluvchi shaxsiy ma'lumotlarni faqat avtomatlashtirilgan tarzda qayta ishlash asosida qarorlar qabul qilish, taqiqlanadi.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq va har qanday qonuniy cheklovlarni hisobga olgan holda, siz kompaniyadan quyidagilarni talab qilish huquqiga egasiz:

1. Shaxsiy ma'lumotlaringizni qayta ishlash haqida qo'shimcha ma'lumot berish; Sizga bizda mavjud bo'lgan shaxsiy ma'lumotlaringizga kirish huquqini berish;
2. Roziligingizni qaytarib olgandan so'ng, muayyan ma'lumotlarni qayta ishlashni to'xtatish; va shuningdek
3. Shaxsiy ma'lumotlar to'liq bo'lmagan, eskirgan, noto'g'ri, noqonuniy olingan yoki ularni qayta ishlash maqsadlari uchun zarur bo'lmagan taqdirda, shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashni vaqtincha to'xtatib turish.

Ma'lumotlarni himoya qilish bilan bog'liq barcha so'rovlar dpo@themover.uz elektron pochta orqali yuborilishi kerak.

Agar shaxsiy ma'lumotlar sub'ekti Operator uning shaxsiy ma'lumotlarini Qonun talablarini buzgan holda qayta ishlayapti yoki uning huquq va erkinliklarini boshqacha tarzda buzayapti deb hisoblasa, Foydalanuvchi shaxsiy ma'lumotlar sub'ektlarining huquqlarini himoya qilish uchun Operatorning harakatlari yoki harakatsizligi ustidan Vakolatli organga yoki sud tartibida shikoyat qilish huquqiga ega.

Siyosatning yangilanishi

The MOVER kompaniyasi, amaldagi qonunchilikka muvofiq, texnik yutuqlarni, me'yoriy-huquqiy bazadagi o'zgarishlar va The MOVER tijoriy-biznes amaliyotini aks ettirish maqsadida ushbu Siyosatga o'zgartirish kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi. Agar The MOVER o'zining maxfiylik amaliyotiga o'zgartirishlar kiritrsa, bunday o'zgarishlar kuchga kirgan sanasi bilan birga ushbu Siyosatning yangi tahriri oxirida ko'rsatilishi kerak. Shuning uchun, sizga kompaniya sizning shaxsiy ma'lumotlaringizdan qanday foydalanayotganligi haqidagi dolzarb ma'lumotlarni olish uchun vaqti-vaqti bilan ushbu sahifani ko'rib chiqishingizni tavsiya qilamiz.

«THE MOVER» MChJ

INN 311245116

O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Mirobod tumani, Nukus ko'chasi, 86/3-uy, «SILVER» biznes markazi

info@themover.uz



Yakuniy qoidalar

Operatorning shaxsiy ma'lumotlar operatori sifatidagi boshqa huquq va majburiyatlari, O'zbekiston Respublikasining shaxsiy ma'lumotlar sohasidagi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Agar sizda ushbu Siyosat haqida savollaringiz bo'lsa yoki The MOVER kompaniyasida qo'llanilayotgan maxfiylik amaliyotlari haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lishni istasangiz, dpo@themover.uz elektron pochta orqali murojaat qiling.

Oxirgi yangilanish sanasi

28.07.2025.

«THE MOVER» MChJ

INN 311245116

O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Mirobod tumani, Nukus ko'chasi, 86/3-uy, «SILVER» biznes markazi

info@themover.uz